

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Sh.D.Xonbabayev**

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning tarkibiy tuzilishi va yo'nalishlari .....227

**M.S.Xoshimov**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq o'yinlari orqali kommunikativ kompetentligini takomillashtirishning metodologik asoslari .....231

IQTISODIYOT

**X.X.Bozarov**

Kichik biznes subyektlarida iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish strategiyasini takomillashtirish .....235

**U.X.Gulmatov**

O'zbekiston milliy transport tizimining iqtisodiy asoslari.....239

FALSAFA

**M.M.Abduraxmonova, D.O.Akramov**

Umumta'lim maktablarida xavf guruhidagi oila farzandlarini ijtimoiylashuvida mahalla ijtimoiy xodimining ahamiyati.....246

**Q.Sulaymonov**

O'rta asr Islom Sharqi allomalarining gnoseologik va teologik qarashlarining qiyosiy induksiyasi .....253

**X.A.Yulbarsova**

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....258

**I.A.Asatulloev**

Alfred Adlarning qalb konsepsiyasida inson kamolotining ijtimoiy omillar bilan shartlanganligi.....264

**I.A.Suvanov**

Axborot jamiyatida insonni kutayotgan yangi muammolar xususida ayrim mulohazalar .....268

**M.Y.Ergashov, Z.I.Narziyev**

Qomusiy alloma Abu Bakr Muhammad Zakariyo ar-Roziyning ma'naviy va ilmiy merosi.....273

**M.K.Soipova**

Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda fan va islom qadriyatlarini tushunchasining mazmun mohiyati.....277

**I.B.Toshpo'latov**

Jamiyat taraqqiyotida filantropik harakatning ahamiyati.....281

**З.С.Касимова**

Цифровизация и гуманитарное образование: сотрудничество и инновации .....284

SIYOSAT

**Z.Sh.Turg'unboyev**

O'zbekiston Respublikasining Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishda xalqaro maydondagi tashabbuslari.....290

**O'.N.Ahmedova**

Davlat va jamiyat boshqaruvida rahbar kadrlar ma'naviyatini yuksaltirish zarurati.....296

**M.T.Musayev**

Globalashuv sharoitida missionerlikning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga ta'siri.....300

**G.S.Ro'ziyeva**

Madaniyat va milliy xavfsizlik sohasida davlat siyosatini belgilashning o'ziga xosligi .....305

TARIX

**B.X.Matboboyev, A.A.Aloxunov**

O'zbek-Xitoy qo'shma xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining Mingtepa shahar xarobasida olib borgan ilmiy izlanishlari natijalari xususida .....311

**J.Sultonov**

Chingizxonning markazlashgan davlatga asos solishida ittifoqchilik va diplomatiyaning roli....318

**X.X.Azimov**


Qadimgi Xitoy manbalarida Usun davlati.....329

**J.Z.Axmedov**



UO'K: 378.014.15

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMDANIY  
KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASHNING TARKIBIY TUZILISHI VA  
YO'NALISHLARI****СТРУКТУРА И НАПРАВЛЕНИЯ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К  
РАЗВИТИЮ НАЦИОНАЛЬНО И ОБЩЕКУЛЬТУРНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ****THE STRUCTURE AND DIRECTIONS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR  
THE DEVELOPMENT OF NATIONAL AND GENERAL CULTURAL COMPETENCIES IN  
STUDENTS**

**Xonbabayev Shoxruxbek Dilshodjon o'g'li**   
Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning tarkibiy tuzilishi va yo'nalishlari o'rganilgan, uning bugungi kundagi zarurati hamda pedagogik dolzarbliligi atroflicha yoritilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье изучаются структура и направления подготовки будущих учителей к развитию национально и общекультурных компетенций у учащихся, подробно освещаются ее необходимость и педагогическая актуальность*

**Abstract**

*This article examines the structure and directions of training future teachers for the development of national and general cultural competencies among students, highlights in detail its necessity and pedagogical relevance*

**Kalit so'zlar:** pedagog, kasbiy kompetentlik, klassifikatsiya, takomillashtirish, kompetensiya, kompetent yondashuv.

**Ключевые слова:** педагог, профессиональная компетентность, классификация, совершенствование, компетентность, компетентный подход.

**Key words:** pedagogue, professional competence, classification, improvement, competence, competent approach.

**KIRISH**

Hozirgi kunda oliy o'quv yurtlarida malakali mutaxassislarni tayyorlashning muhim elementi bitiruvchining milliy va umummadaniy kompetentlikka egaligini o'z ichiga olgan qo'shimcha fazilatlarini shakllantirishdir. Bugungi kunda professional pedagog shaxsini shakllantirish vazifasi sifatida yuqori axloqli, ma'naviy madaniyatga, milliy va umummadaniy ko'nikmalarga ega bo'lgan, bag'rikenglik ko'rsatadigan, boshqa xalqlarning tillari, urf-odatlar va madaniyatiga hurmat ko'rsatadigan kadrlarni tarbiyalash zarurati ortib bormoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

O'zbekistonda bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy faollikni rivojlantirish masalalari M.Raxmanova, M.Quronov, X.Tojiboyeva, G.J.Tulenova, Q.Quranboyev; ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish borasida N.Abdumuratova, D.Nafasov; ma'naviy va badiiy qadriyatlarining tarixiy-falsafiy, axloqiy-estetik mazmun-mohiyati A.G.Abdunabiyev, B.Abduraximov, S.SH.Alimov, A.Erkayev, F.A.Babashev, E.Umarov, M.Abdullayev, E.Xakimov, N.Y.Jurabayev, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim oluvchilarning tafakkur imkoniyatlarini rivojlantirish borasida O.Abduraxmonov, D.Yakibova, R.Mavlonova, N.Raxmonqulovalar tadqiqotlar olib borishgan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Ta'lim g'oyasining o'zi barcha odamlarning tajribasi va har bir insonning shaxsiy tajribasini shakllantirish va amal qilish usuli sifatida xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida jamiyatning ijtimoiy

tajribasi individual tajribaga kiritiladi. Shaxsni madaniyat bilan yaqinlashtirishda aynan ta'lim muhim rol o'ynaydi. Ta'lim makonida inson o'z xalqining etnik madaniyatini, mintaqaning milliy o'ziga xosligini va ular orqali butun dunyo umuminsoniy madaniyatini o'rganadi. Etnik guruhlar, millatlar, jamoalar madaniy merosining yetaklovchisi o'qituvchidir, u kelajak avlodni turli madaniy qadriyatlarga, urf-odatlariga jalb qiladi, o'z etnik-milliy madaniyati tashuvchisi va etnik o'ziga xoslikning ilhomlantiruvchisi bo'lishga da'vat etadi.

Oliy pedagogik ta'lim davlat standartida bakalavriat ta'lim dasturlarini o'zlashtirish natijalariga qo'yiladigan talablarda mutaxassislarining milliy va umummadaniy kompetentlikni egallashini nazarda tutadi, chunki mutaxassis ijtimoiy va madaniylikni bag'rikenglik bilan qabul qilishga, milliy va umumbashariy meros va madaniy an'analarga hurmat va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga tayyor bo'lishi kerak.

Milliy va umummadaniy kompetensiya quyidagilarni o'z ichiga oladi:

vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish;

badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish;

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va.h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish;

xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash;

jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish. Bizningcha, zamonaviy shaxs kasbi va faoliyatidan qat'iy nazar, yuqori darajadagi vatanga sadoqatlilik tuyg'usiga ega bo'lishi kerak. Bu esa, kishilarga birtomondan, o'zining hayotiy faoliyatidan mamnunlik hissini tuyishimkoninibersa, ikkinchi jihatdan, o'z hayoti davomida faol va mas'uliyatli, boshqalarning haq-huquqlarini hurmat qiladigan vatanparvar shaxs sifatida shakllanishi uchun muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda ta'lim siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida vatanparvarlik tarbiyasini modernizatsiyalash hamda bu jarayonga yoshlarning madaniy jipsligi ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Har bir mintaqaviy tizim uchun an'anaviy bo'lgan yoshlarni vatanparvar qilib tarbiyalash, bunday tarbiyani kuchaytirishning yo'llarini qayta ko'rib chiqish, shuningdek vatanparvarlik tarbiyasi muammolarini hal qilishga yagona yondashuvni ishlab chiqish borasidagi mamlakatlarning intilishlari mana shunday jarayonlar natijasidir. Vatanga sadoqatlilik tarbiyasi mexanizmi sifatida inson tomonidan individuallashuv va ijtimoiylashuv jarayonida Vatanga xizmat qilishning ahamiyatini anglab yetishga yo'naltirilgan faoliyat yuzaga chiqadi. Shu asnoda, vatanparvarlik va ta'limning birlashtiruvchi makonida vatanparvarlik tarbiyasi mexanizmini o'zlashtirishga nisbatan ikki-qiyofaviy-hodisali va hodisali-innovatsion metodologik yondashuvlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, bugungi ta'lim oldiga qo'yilgan muhim masala umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta'lim-tarbiyaning mazmunida insonparvarlik g'oyasini kuchaytirish, xalqchillashtirish, uning uzviyligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi asosida milliy va umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishdan iboratdir. Demak, ta'lim-tarbiya jarayonida umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlarning ustivorligiga erishish o'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishning muhim omilidir. So'ngi yillar fuqarolar hayoti va danyoqarashida tub burilishlar davri bo'ldi. Jamiyatimiz butunlay yangi qiyofa, yangicha mazmunni kasb etmoqda. Odamlarning turmush tarzlari o'zgarimoqda. Endi hamma gap qo'lga kiritilgan yutuqlarni asrab-avaylashda, kun sayin uning mazmunini boyitib, ma'naviy jihatdan chuqurlashtirib borishda qolgan [4]. Har bir inson ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy voqelikni chuqur idrok etishi, istiqbolni rejalashtirishning ilg'or yo'nalishlarini pishiq-puxta anglab olishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Badiiy va san'at asarlarini tushunish. Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish va bu orqali ularning badiiy va san'at asarlarini tushunishga doir bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish ishlari dolzarblik kasb etmoqda. Bunga sabab kunimizdagi global o'zgarishlar, madaniyatlararo integratsion munosabatlar va boshqa ijtimoiy omillar badiiy-estetik dunyoqarashni rivojlantirishni talab etmoqda. Ayniqsa bo'lajak kadrlarning kasbiy faoliyatida badiiy tafakkurni rivojlantirish va bu orqali ijodiylik, novatorlik va yangilikni izlashda kreativlikni shakllantirish vazifalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi

## PEDAGOGIKA

navbatda, «yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir» [1]. Shunday ekan, jamiyatda ijodkorlik, yaratuvchanlik muhitini yaratishga san'atning sirli imkoniyatlaridan foydalanish, buning uchun sa'nat nazariyotchilarini o'qitish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy sharoitda bo'lajak o'qituvchilarning badiiy va san'at asrlariga doir bilimlarini rivojlantirish murakkab ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat miqyosida borliqni badiiy o'zlashtirish jarayonlari va natijalari, mehnat faoliyati, turmush, ijtimoiy munosabatlarning holatlari; did va manfaatlarining muayyan holati; badiiy-estetik tarbiya nazariyasi va amaliyoti ta'siri, ularning ijtimoiy-estetik faolligining namoyon bo'lishida kuzatiladi. Shuning uchun ham, talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirish orqali mamlakatimizda bo'lajak pedagoglarining kasbiy salohitini oshirish, san'atni tushunish dunyoqarashini kengaytirish, tafakkurini o'stirish mumkin bo'ladi.

Bizningcha, oliy ta'limda bo'lajak kadrlarning badiiy vaestetik dunyoqarashi, san'at asarlarini tashunishga doir ko'nikmalarini rivojlantirish uchun oldindan belgilab qo'yilgan sun'iy qoliqlar asosida emas, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, jahon ta'lim tizimida erishilgan yutuqlarga asoslangan, yangi pedagogik tafakkurga tayangan holda yaratilgan. O'rganish uchun belgilangan asarlarning yuksak badiiy mezonlar talabiga javob berishi, talabalarning badiiy didini o'stirishga, ma'naviy olamini shakllantirishga, ularda yuksak axloqiy sifatlar shakllantira olishi kabi jihatlarga qarab olishi lozim.

Bo'lajak o'qituvchilarning badiiy va san'at asarlarini tushunishga doir bilimlarini rivojlantirish uchun ijtimoiy munosabatlarning quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish talab etiladi:

- tabiat, turmush, ijtimoiy munosabatlarni badiiy jihatdan o'zlash-tirish jarayonlari va ularning natijalari;

- badiiy madaniyat, san'at taraqqiyoti darajasi;
- ijtimoiy-estetik ideal;
- badiiy-estetik did;
- turmush estetikasi;
- zamonaviy ilmiy-nazariy va badiiy-estetik faoliyat;
- milliy va diniy badiiy-estetik an'analar;
- mehnat estetikasi;
- badiiy havaskorlik;
- axloqiy-estetik e'tiqod va tasavvurlar;
- badiiy-estetik qarash va manfaatlar;

Aslida, badiiy va san'at asarlarini tushunish asosida olamni amaliy jihatdan o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyat yotadi, unda subyektning badiiy-estetik ongi, badiiy-estetik munosabatlarning mazmuni moddiylashgan bo'ladi. Shunday qilib, badiiy-estetik bilim va ko'nikmalar birinchi galda narsa-hodisalarning insoniylik mohiyati, ularning shakliiy mukammalligi, shuningdek, tartib, moddiy-amaliy maqsad-manfaatlarga beg'araz, xoli munosabatda bo'lish meyorlarini aks ettiruvchi yuksak insoniy hissiyotni o'z ichiga oladi. Biroq nechog'lik insoniy hissiyot muhim bo'lmasin, lekin u estetik faoliyatni amalga oshirish uchun yetarli bo'lmaydi. Muayyan hodisani go'zallik nuqtai nazaridan baholashda uni predmetning mazmuni va ahamiyati bilan solishtirish, unga mos meyorlar belgilash lozim. Bu, albatta, talabalarning intellektual qobiliyatiga ham bog'liq bo'lib, ularning badiiy-estetik idrok obyektlarini bilishining muayyan darajasini anglatadi.

Badiiy va san'at asarlarini tushunish faoliyati turli jarayonlarning o'zaro aloqadorligi asosida rivojlanadi. Bu rivojlanish asosida talabalarning ongida hosil bo'ladigan tasavvur va fikrlar yig'indisi muayyan badiiy-estetik ko'rinishga asoslangan holda ijtimoiy hayotning quyidagi qonuniyatlarini ifodalaydi:

badiiy-estetik faoliyat unsurlarining notekis rivojlanishi;  
badiiy tafakkur taraqqiyotining notekis rivojlanishi;  
badiiy tafakkur bilan tabiiy muhitning mutanosibliigi;  
badiiy-estetik bilim va ko'nikmalarni ma'naviy ehtiyojlarga mos ravishda o'zgarib borishi;  
ijtimoiy tuzum bilan badiiy-estetik faoliyatning aloqadorligi; badiiy tafakkur va qarashlar tizimining vorisiylik qonuniyati.

Umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va.h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish. Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat

hisoblanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr-qimmatini haqida so'zlash bema'nilikdir. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning, islohotlarning barchasi kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson o'zini chinakamiga erkin his etishi, o'z mehnatining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir.

Bashariyat tarixining barcha bosqichlarida inson, uning erkinligi, huquqi, qadr-qimmatini buyuk mutafakkirlarning diqqat markazida turgan muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Ming yillar davomida yaratilgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarda kishilar o'rtasidagi muloqot-munosabat qoidalari, do'stlik, hamjihatlik, mehnatsevarlik, saxiylik kabi insonning umrboqiy fazilatlarini muttasil tarzda ulug'langan. Insoniyatning yashash tarziga zid keladigan odatlar: ichi qoralik, yovuzlik, xudbinlik, beodoblik, kibr-havo qoralangan.

Insoniyat ko'p ming yillik tarixi davomida erkin, baxtli va go'zal hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan xilma-xil qadriyatlarni, inson va uning xuquqi, erkinliklarini himoya qiladigan qonunlarni yaratadi. Inson go'zal yashashi uchun zarur bo'lgan badiiy-estetik qadriyatlarni rivojlantiradi, kishilarning bir-biriga va jamiyatga bo'lgan munosabatlarini belgilab beradigan axloqiy qoidalar majmuasini joriy etadi va hokazo. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotida salmoqli o'rin egallab, kishilarning insoniy fazilatlarini yuksaltirishda katta xizmat qilib kelgan va hozir ham xizmat qilib kelmokda. Lekin shu bilan bir qatorda, inson o'zi yaratgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni ko'p joylarda poymol qilib kelayotganligini ham tan olishimiz kerak. Ba'zi holatlarda qonunbuzarlik, axloqsizlik, millatimizning urf-odat va an'analariga zid keluvchi xatti-harakatlarning aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida paydo bo'layotgani bunga misol bo'la oladi. Bularning oldini olish hozirgi kunda jamiyatimiz oldidagi muhim va dolzarb vazifadir.

O'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish. Bugungi kunda turli millatlar, madaniyatlar, tillar, e'tiqodlar qorishib ketayotgan bir paytda, ularni hurmat qilish, e'zozlash, tushunishga urinish, bag'rikenglik prinsipi asosida yondashish dolzarb masala sifatida baholanmoqda. Tenglik, adolat va qonuniylikka asoslangan umummadaniy muloqot mezonlarini ishlab chiqishda horijiy tashkilotlar va ilmiy tadqiqot muassasalari zarur ishlarni olib bormoqda [3]. Mamlakatimizda ham yoshlarni o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish ga tayyorlashga doir tadqiqotlar qo'llab quvvatlanayotganini guvohi bo'lib turibmiz.

Buning uchun birinchi navbatda jamiyat uchun umummadaniy muloqot muhitini qaror toptirishning ijtimoiy zaruratini asoslash kerak bo'ladi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: «Mustaqillik yillarida biz erishgan eng katta yutuq – bu jamiyatimizdagi o'zaro mehr-oqibat va hamjihatlik muhitidir va biz bu bebaho boylikni asrab-avaylash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz» [2]. Buning uchun albatta, sabr-toqatga asoslangan umummadaniy muloqot muhitini yaratish zarur bo'ladi.

### XULOSA

O'zbek xalqida birodarlik, insoniylik, mehr-oqibat, bag'rikenglik singari fazilatlar asrlar davomida shakllangan. Bugungi kundagi asosiy vazifamiz esa, ushbu qadriyatlarni asrab avaylash, rivojlantirish, yuksak namuna sifatida kelajak avlodlarga yetkazish hisoblanadi. Bunday vaziyatda, yurtimizda millatlararo tenglik, totuvlik, birodarlik, hamjihatlik, o'zaro samimiy madaniy muloqot muhitini va imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiqdir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б.303.
2. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. –Б.479.
3. Tatyana V. Vorobyova, Larisa G. Poleshchuk. Ethnic tolerance among students. WELLSO 2015 - II International Scientific Symposium on Lifelong Wellbeing in the World. 2016 Published by Future Academy [www.FutureAcademy.org.uk](http://www.FutureAcademy.org.uk). –P. 302.
4. Самадова С. Маънавий – маърифий тадбирлар самарадорлигини оширишнинг педагогик асослари: ўқув-услубий қўлланма // - Бухоро : "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020.-Б. 9.